


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“FUQARO MUHOFAZASI”

FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI



Andijan – 2016

Ushbu ma`ruza matni "Fuq'aro muhofazasi" fanidan tayyorlanib, unda fanning maq'sadi va FV asosiy vazifalari keltirilgan. Ma`ruza matnida zamonaviy q'irg'in q'urollari, favq'ulodda vaziyatlarda fuq'arolarni, xalq' xo'jaligi tarmoq'larini, atrof muhitni zararlanishdan saq'lash, q'utq'arish va tiklash ishlarini amalga oshirish masalalari keltirilgan

Ushbu tayyorlangan ma`ruza matni АндМи ilmiy-uslubiy kengashining №__ sonli yig'ilishida muhokama q'ilindi va tasdiq'landi. Bayonnoma №____ "____" _____2016 yil

O'quv uslubiy kengashi raisi _____ **Q.Ermatov**

Ma`ruza matni "Mashinasozlik texnologiyasi" fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2016 yil ____dagi ____-sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____**M. Eshonov**

Fanning ma`ruza matni "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasining 2016 yil "____" _____dagi "____" - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____**N.Qobulova**

Tuzuvchi:

A.Abduraxmanov- AndMI "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasida dotsenti,t.f.n.

Taqrizchilar:

1. X.Razzoqov- Andijon viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasining bo'lim boshlig'i, kapitan.

2. M. Eshonov-AndMI "Ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish" kafedrasida dotsent

KIRISH

XX asr oxiriga kelib havfsiz xayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib q'olmoq'da, chunki ishlab chiq'arish jarayonining misli ko'rilmagan yuksak taraqq'iy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, aholi salomatligi, atrof-muxit tozaligi va iqtisodning barq'aror rivojlanishiga tahdid q'ilib turibdi.

Avvalgi ikki q'arama-q'arshi siyosiy qarashlarning bir-biriga faol qarshiligi vaq'tlarida butun aholi q'atлами faq'at zamonaviy q'irg'in q'urollari va xujumkor vositalaridan himoyalaniş ruhida tarbiyalangan bo'lsa, xozirgi davrdagi fuq'arolar muhofazasi - yangi ijtimoiy, iktisodiy zarurat asosida tashkil topgan. Ya'ni mustaq'il O'zbekistonni va fuq'arolarini turli ko'rinishdagi falokatlardan va halokatlardan saqlash ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Shu nuqtai nazardan xalq'imizni dushman tomonidan bo'ladigan ham ichki, ham tashqi ta'sirlardan saqlash, xozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblansa, ikkinchi tomondan bizning o'lkamiz tabiiy ofatlar (er silkinishi, suv toshq'ini, kuchli shamol va boshq'alar), bo'lishiga moyil o'lka bo'lganligidan hamda texnogen avariylar, falokatlar va ekologik muvozanatning buzilishi natijasida uning oq'ibatlaridan fuq'arolarni, texnikalarni va tabiatni asrash, zarar ko'rgan hududlarda q'utq'arish va kechiqtirib bo'lmaydigan tiklash ishlarini olib borish ham juda muxim masalalardan hisoblanadi.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni fuq'arolar muhofazasiga o'q'itishdan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarni favq'ulodda vaziyatlarda fuq'aro muhofazasi chora-tadbirlarini ishlab chiq'ish va amalda q'o'llashga hamda harbiylashmagan tizim boshliqlari lavozimida ish tutishga o'rgatishdan iborat.

1-mavzu: Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi haqida tushuncha. Fuqaro muhofazasining maqsad va vazifalari hamda uning huquqiy asoslari

Reja.

- 1.Favq'ulodda vaziyatlar va fuq'aro muhofazasi kursining maqsad hamda vazifalari.
2. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi tushunchasi
- 3.Fuq'aro muhofazasining maqsad va vazifalari.
- 4.Aholi va xududlarni FVlarlan muhofaza qilishning xuquqiy asoslari.

1.Favq'ulodda vaziyatlar va fuq'aro muhofazasi kursining maqsad hamda vazifalari.

Har bir mintaqada havfsizlikni ta'minlash muammolari shunchaki mavhum xarakterda bo'lmaydi, har kaysi mintakani o'z xususiyatlari, havf soladigan o'z manbalari va havfsizlikni saklaydigan o'z omillari bo'ladi.

Bugungi kunda hayot xavfsizligini ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi, ishlab chiqarish jarayonlarining misli ko'rilmagan yuksak darajada taraqqiy etgan texnologiyalarda ishlashi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, Aholi salomatligi, atrof-muxit tozaligi va iqqisodning barqaror rivojlanishiga tahdid solib turibdi. Shu sababdan ham Respublikamiz mustaqillikka erishgan yillaridanoq eng muhim vazifalar qatoridan mamlakat aholisi va hududini turli xil favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari o'rin oldi.

Prezident I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ta'kidlaganidek: «Ekologik havfsizlik muammosi allaqachonlar milliy mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan.

Fan o'q'itilishidan maqsad – bo'lajak mutaxassislarga favq'ulodda vaziyatlarda aholini muhofazalanishiga o'rgatishni tashkil etish yo'llari va uslubiyotlarini o'rgatishdan iborat.

O'q'uv fanini o'rganishning asosiy vazifalari – turli favq'ulodda vaziyatlarning umumiy tavsiflari, kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlari, favq'ulodda vaziyatlarni oldini olish, talofatlarni kamaytirish va favq'ulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishdan iborat.

Oliy o'q'uv yurti tomomidan olib boriladigan tadbirlarni hisobga olgan holda fuq'aro muhofazasi tizimni o'rganish, O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlash sohasida fuq'aro muhofazasi tadbirlari, vazifalari muhimligini, shuningdek favq'ulodda vaziyatlarda o'ziga va o'zaro birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga ma'suliyat bilan yondashishni tarbiyalash.

«Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» fanining maqsadi har qanday favqulodda vaziyatlardan (tabiiy va texnogen) fuqarolarga birlamchi yordam berish hamda iqqisodiyot tarmoqlarini va moddiy resurslarni zararlanishdan saqlash qoidalarini o'rganishdan iborat.

Ushbu kurs orq'ali talabalar:

- aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan oqibatlardan himoyalaniish usullariga o'rgatish;

- boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish hamda ularning ishini doimiy shay holatda saqlab turish;

- xalq xo'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish;

- aholini, moddiy va ma'naviy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

- fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligini ta'minlash;

- aholini umumiy va shaxsiy muhofazalanish vositalari bilan ta'minlash tadbirlarini o'tkazish;

-aholining harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta'minlash;

-radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazoratini olib borish;


-qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini o'tkazish;

-harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish va boshq'alarni o'rganadilar.

«Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» fani quyidagi fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi:

- tabiatshunoslik asoslari;
- iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari;
- kichik biznes va tadbirkorlik asoslari;
- mexnat muhofazasi;
- hayot faoliyati xavfsizligi.

O'q'ilayotgan kursning o'ziga xos tomonlaridan biri shundan iboratki, unda maxsus umumdavlat tarmoq' va adabiy atamalar ko'plab ishlatiladi. Shuning uchun butun matn davomida bu uch, to'rt so'zlardan iborat atamalarni q'isq'artirma ot sifatida ishlatilsa, maq'sadga muvofiq' bo'ladi. Shu sababdan bu yerda ularning ayrim eng ko'p uchraydiganlarini keltirishni lozim topdik.




EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR.

- ▶ **Quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:**
 - halokatli ko'chkilar (er yuzasining o'pirilishi, siljishi);
 - tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi va boshqalar.
- ▶ **Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar:**
 - havo muhitining ekstremal yuqori ifloslanishi;
 - katta ko'lamda kislotali zonalar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yog'ilishi;
 - radiatsiyaning yuqori darajasi.
- ▶ **Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:**
 - yer yuzasida sizot suvlar darajasining oshishi;
 - ichimlik suvining keskin yetishmasligi.

2. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi tushunchasi

- ▶ **Favqulodda vaziyat** - odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, havfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.
- ▶ **Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish** - favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y-harakatlari majmui.
- ▶ **Favqulodda vaziyatlarning oldini olish** - oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi, havfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.
- ▶ **Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish** - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarini halqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.



Shunday qilib, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasining huquqiy asosini tashkil etuvchi hujjatlar bilan tanishib chiqdik. Bu hujjatlar talablarini chuqur bilmasdan turib favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini samarali amalga oshirib bo'lmaydi. Har bir rahbar xodim, har bir fuqaro muhofazasi bo'yicha mutaxassis bu hujjatlarni bilib, o'rganibgina qolmay, zarur bo'lgan vaziyatlarda ulardan kelib chiqadigan talablarni amalda qo'llay bilishi ham lozim. Boshqacha aytganda: "Har qanday qonun ijro qilingan taqdirdagina qonundir. Qonunning amalda ishlashi uchun esa unga yordamchi aktlar tuzish, eng asosiysi esa, uni hayotga tadbiq etish kerak" (I.Karimov).

Bu so'zlar O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus vakolatli davlat organi bo'lmish Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning joylardagi boshqarma, bo'limlari yelkasiga yanada mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Favqulodda vaziyat (FV) – bu ma'lum hududda avariya, falokat, tabiiy yoki ekologik ofat, epidemiya, epizootiya, epifitotiyalar natijasida sodir bo'lgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan, odamlar o'limiga yoki kasallanishiga olib keluvchi yoki atrof-muhitga ta'sirli zarar keltiruvchi va odamlarning hayotiy faoliyatini buzuvchi vaziyatdir.

FV ni cheklashda davlatlararo chegaralar to'siq bo'lolmaydi. Shuning uchun "Hudud" atamasiga FV larni cheklash milliy va davlatlararo dasturlar ishlab chiq'ish vaq'tida ma'lum mazmun beriladi.

"Hudud" – bu yer, suv va havodan tashkil topgan makon yoki uning bir q'ismi, ishlab chiq'arish va maxsus ob'ekt, xamda bizni o'rab turgan muhit.

“Aholi” – bu FV yoki uning oq’ibati ta’siridagi hududda bo’lgan O’zbekiston Respublikasi fuq’arolari, fuq’arolik huquqi bo’lmagan va chet el, hamda FV oq’ibatlarini tugatishda q’atnashayotgan odamlardir.

“Shikastlanish o’chog’i” - bu FV ning zararli va havfli omillari ta’siri ostida joylashgan aholi, hayvonlar, inshootlar va moddiy resurslardir.

“Qirg’in q’urollari” – bu juda katta miq’yosda vayrongarchilik va yo’q’ q’ilish uchun mo’ljallangan q’urollardir.

“Tabiiy ofat” – bu tabiatda yuz beradigan favq’ulodda o’zgarishlar bo’lib, tezlikda insonlarning mo’tadil yashash, ishlash sharoitlarining buzilishi, odamlarning o’limi hamda q’ishloq’ xo’jaligi hayvonlarining va moddiy boyliklarining yo’q’ bo’lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir.

“Zilzila” – bu yer osti zarbasi va yer ustki q’atlamining tebranishi bo’lib, tabiiy ofatlar, tektonik jarayonlar tufayli yuzaga keladi.

“Suv toshq’ini” – bu daryo, ko’l, hovuzlardagi suv satxining keskin ko’tarilishi natijasida ma’lum maydonlardagi yerlarni suv tagida q’olishiga aytiladi.

“Er surilishi” – bu tog’ jinslari q’atamlarini q’iya satx bo’ylab o’z og’irligi, gidrodinamik, gidrostatik, seysmik kuchlar ta’sirida surilishidir.

“Sel” – bu tog’ daryolari o’zaklarida to’satdan yuzaga keluvchi, suv, tog’ jinslari bo’laklari aralashmasidan iborat loyq’a yoki loy–toshli oq’imdir.

“Avariya” – bu bajarilayotgan ishning birdan to’xtab q’olishi, yoki sanoat korxonalarida ishlab chiq’arishining izdan chiq’ishi, transportda va boshq’a ob’ektlarda moddiy boyliklarning buzilishi, yoki yo’q’ bo’lishidir.

“Fojeali xodisa” – bu ma’lum bir vaq’t oralig’ida sodir bo’ladigan falokatdir.

“Himoya inshootlari” – bu fuq’arolarni tabiiy ofatlar, avariya, halokat oq’ibatlaridan hamda q’irg’in q’urollari ta’siridan va ularning ikkilamchi ta’siri omillaridan saq’laydigan boshpanalardir.

“Epidemiya” – yuq’umli kasalliklarning ma’lum xududda q’ayd q’ilingan o’rtacha kasallanish darajasidan ko’p miq’dorda tarq’alishidir.

Favq’ulodda so’zni oddiy xalq’ tili bilish aytganda odatdagi hayotiy voq’ealardan chekinish deb tushuniladi.

Biz FH fanida keng ma’noda ko’pchilik odamlarning hayotiga va sog’ligiga xavf tug’diruvchi sabablarni tushunamiz.

HFX fani nazariyasining ayrim elementlarini eslaylikchi:

1. HFX ning asosiy aksiomasi – har q’anday faoliyatda yashirin xavf bor va kishining hayotida xavflar uzluksiz harakterga ega;

2. Xavflarning makon va zamonda noaniq'ligi, ya'ni bu shunday kuchki, uning yuzaga chiq'ishi uchun ma'lum sharoit mavjud bo'lishi kerak;
3. Yashirin xavflarni yuzaga chiq'ish sharoiti sabab deb ataladi, bular har vaq't mavjud va ma'lum yoki noma'lum bo'lishi mumkin;
4. Sabablarni bilish, ularning o'xshashlik tamonlarini aniq'lay olish FVlarning oldini olishning asosidir.

Shunday q'ilib, yashirin xavf sabablar tufayli jamiyat uchun noxush oq'ibatlar (odamlarning o'limi, moddiy zararlar, ekologik talofatlar va h.k.) tarzida sodir bo'ladigan voq'ealar FV deb ataladi.

Shunday ekan, kishilik jamiyati FV larda o'z-o'zini saq'lab q'olish zaruriyatini tushungan holda, oldindan puxta o'ylab, HFV ni ta'minlashga q'aratilgan tadbirlar q'abul q'iladi.

FV shunday hodisa, jarayonki uning alomatlari, rivojlanishining bir necha o'timlari va oq'ibatlari bo'ladi.

FV lardan himoyalash q'uyidagi tadbirlar sistemasini o'z ichiga oladi:

- Retrospektiv tahlil, ya'ni o'tmishga nazar tashlagan holda tahlil q'ilish;
- Tayyorgarlik ishlarini o'tkazish;
- FV davridagi harakatlarga tayyorgarlik ko'rish;
- Oq'ibitlarni tugatish.

3.Fuq'aro muhofazasining maq'sad va vazifalari.

Har bir mustaq'il davlat o'zining mudofaa q'udratiga ega. Mudofaa siyosatini q'ay tarzda amalga oshirish imkoniyatlari o'sha davlatning q'udratini belgilaydi. Chunki har bir davlat moddiy boyliklarini, texnikalarni, saq'lashda yangi turdagi omillarni yaratadi va ishlab chiq'adi. Shu tariq'a davlatlarda yangi-yangi q'urollar yaratiladiki bo'lar nafaq'at imkoniyatga, butun jonli tabiatga, atrof muxitga juda katta ziyon yetkazadi (kapitalizm - sotsializm: ikki lager, umumiy q'irg'in q'urollari, q'urollanish poygasi va x.k.).

Bunday q'urollar mavjud ekan, albatta ulardan saq'lanish vositalarini insoniyat izlaydi, turli omillarni ishlab chiq'adi. Shuning uchun har bir davlat mudofaa q'udratining asosini fuq'arolar muhofazasi tashkil etadi.

Fuq'arolar muhofazasi - umudavlat mudofaa siyosatlaridan biri bo'lib, u har q'anday favq'ulodda holatlarda fuq'arolarni, xalq' xo'jaligi tarmoq'larini muhofaza q'ilishda, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda q'utq'arish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaq'illigimizning dastlabki yillarida fuq'arolarni va hududlarni tabiiy ofatlardan, turli hildagi avariyalardan muhofaza q'ilish, fuq'arolarning mo''tadil xayot faoliyatini ta'minlash

borasidagi vazifalarni hal etish uchun O'zbekiston hukumati tomonidan 1991 yilda Fuq'aro mudofasi tizimi Fuq'aro muhofazasi tizimiga aylantirildi. Ushbu tizim O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi fuq'aro mudofasi va favq'ulodda vaziyatlar boshq'armasi sifatida tinchlik davrlaridagi tabiiy ofatlar, ishlab chiq'arish falokatlarin oldini olish va uning oq'ibatlarini tugatish vazifalarini bajaradi. Mamlakat fuq'arolar muhofazasini rivojlantirishning kontseptsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1994 yil 9 aprelda Respublika kengashida so'zlagan nutq'ida bayon etilgan. Prezidentning 1996 yil 4 martdagi farmoniga binoan aholini va xalq' xo'jaligi inshootlarini tabiat ofatlardan muhofaza q'ilishning samarali tizimini tashkil etish, Respublikada tabiat va texnogen xususiyatli favq'ulodda vaziyatlarning oldini olish va oq'ibatlarini bartaraf etish maq'sadida O'zbekiston Respublikasi favq'ulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tashkil q'ilindi.

Xuq'uq'iy xujjatlarda fuq'aro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning xuq'uq'iy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini hamda fuq'aro muhofazasi kuchlari va vositalarini ham belgilab bergan.

Fuq'aro muhofazasining asosiy vazifalari q'uyidagi yo'nalishdagi tadbirlar majmuasidan iborat:

- Aholi, xududlarni va moddiy boyliklarni FV oq'ibatidan (dushmanning harbiy harakatlaridan, tabiiy ofat, avariya va halokatlardan) muhofaza q'ilish;
- Har q'anday FVlarda halq' xo'jaligi tarmoq'larini, ob'ektlarning barq'arorligini ta'minlash yuzasidan tadbirlar ompleksini o'tkazish;
- Fuq'aro muhofazasi kuch va vositalarini shayligini ta'minlash;
- Qutq'aruv va boshq'a kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish;
- FVDTi rahbarlarini, mutaxassislarini va FM kuchlarini FM ga tayyorlash hamda oddiy aholini ximoyalanish q'oidalariga o'rgatish.

Bunday yo'nalishdagi vazifalarni har birini bajarish uchun bir q'ator tadbirlarni amalga oshirish orq'aligina maq'sadga erishiladi. Jumladan, FMning harbiy davrdagi vazifalari q'uyidagilardan iborat:

- aholi va ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oq'ibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalanish harakatlari va usullariga tayyorlash;
- Iq'tisodiyot ob'ektlarining barq'aror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish;
- Boshq'aruv, xabar berish va aloq'a tizimlarni tashkil etish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saq'lab turish;
- Aholining moddiy va madaniy boyliklarini xavfsiz joylarga evakuatsiya q'ilish;

- FM harbiy tizimlari shayligini ta'minlash;
- Aholini umumiy va shaxsiy saqlovchi vositalari bilan ta'minlash tadbirlarini o'tkazish;
- Aholining harbiy davrdagi hayot faoliyatini ta'minlash;
- Radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish;
- Qutqaruv va boshqara kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish;
- Harbiy davrlarda ham zarar ko'rgan xududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish;
- Aholini va xududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqara tadbirlarni o'tkazish.

FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolar xayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday xollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish vazirliklar, idoralar, mahalla davlat organlari faoliyatini muvofiq'lashtirib borish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va x.k.larga qaratilgan.

4.Aholi va xududlarni FVlarlan muhofaza qilishning xuquqiy asoslari.

FVV ning muvofaq'qiyatli ish olib borishida mamlakatimizda yaratilgan kuchli huquqiy bazaning ahamiyati katta.

Jumladan, favqulodda vaziyatlar masalasida O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy va texnologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" (1999 y), "fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi (2000 y), q'onunlar, Prezident farmoni, Vazirlar mahkamasining 30 dan ortiq qaror va farmoyishlarining aytish mumkin. Qabul qilingan me'yoriy xujjatlarda Rossiya, AQSh, Germaniya, Frantsiya, Ukraina va boshqara yetakchi davlatlarning fuqaro muhofazasi tizimini shakllantirish borasidagi tajribalari inobatga olingan.

O'zbekiston fuqarolarini F.V. dan muhofaza etishning q'onun bilan belgilangan asosiy tamoyillari:

Insonparvarlik, inson xayoti va sog'ligini ustivorligi, axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchligi, FV-da muhofaza qilish choralarini ko'rilishidir.

Respublika FVDT O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 11 dekabrda farmoniga asosan bosh vazir tomonidan boshqariladi. Hozirda FVDT ning Respublika, mahalliy va ob'ekt bosqichidan iborat 14 ta hududiy va 40 dan ortiq funktsional q'uyi tizimdan iborat

bo'lgan favq'ulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda harakat davlat tizimi o'z faoliyatni ko'rsatmoq'da.

Bu tizim yagona kontseptsiyasini belgilash, bashoratlash, mahalliy ishlar, turli dasturlar yaratish va ularni amalga oshirish, fuq'aro muhofazasi kuch va vositalarining doimiy tayyorgarligini ta'minlash, falokatlar, tabiiy ofatlarni bartaraf q'ilish hamda xalq'aro hamkorlik borasida olib borilayotgan ishlar o'zining ijobiy natijalarini bermoq'da.

O'zbekiston Respublikasida FMning xuq'uq'iy asoslarini ushbu Qonunlar asoslab beradi. Bu q'onunlar FMning asosiy tashkiliy printsiplari, uning vazifalari, davlat tashkilotlari, mahalliy xokikmiyat, vazirliklar, tarmoq'lar, korxona va tashkilotlarning, hamda barcha fuq'arolarning bu boradagi xuq'uq'larini asoslab beradi. FMning ushbu q'onunlarga binoan asosiy vazifalari q'uyidagilardir:

- FVlarni ogohlantirish;
- FVdan ko'rilgan talofat va zararlarni kamaytirish;
- FVlar oq'ibatlarini tugatish.

Qonunning ikkinchi bobi O'zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlari va mahalliy ijroya organlarining xuq'uq'larini belgilaydi. Masalan, Konstitutsiyaning 93-moddasiga binoan Prezident FVlar vujudga kelganda Respublika hududida yoki uning ayrim hududlarida q'urolli kuchlarni yoki boshq'a harbiy q'ismlarni ishga solgan holda favq'ulodda holat e'lon q'ilish xuq'uq'iga ega. Oliy majlis, xukumat, vazirliklarning ham xuq'uq'lari shu moddada belgilangan.

Qonunda O'zbekiston Respublikasi fuq'arolarining sotsial himoyasi, FMning boshq'aruv organlari va davlat nazorati, aholini o'q'itish, FM bo'yicha tadbirlarning moliyaviy va moddiy ta'minoti, q'onunchilik buzilgandagi javobgarlik, q'onunni nazorat q'ilib turish, FM borasidagi xalq'aro xamkorlik masalalari belgilangan.

FM q'onuni asosida "O'zbekiston Respublikasining FVlar haq'ida ogohlantirish va amaliy ishlar bo'yicha Davlat Sistemasi haq'ida Nizom" ishlab chiq'ilgan. Unda shu davlat sistemasining FVlardagi amaliy ishlari tartibi, turkumi, tashkil q'ilinishi bo'yicha asosiy vazifalar belgilangan.

Favq'ulodda vaziyatlar bo'yicha Davlat Sistemasi (FVDS) ning asosiy vazifasi q'uyidagilardan iborat:

- tinchlik va urush paytida FVlarda aholi va hududni himoyalashning xuq'uq'iy va iq'tisodiy me'yorlarini ishlab chiq'ish va amalga oshirish;
- Respublika hududida bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen va tabiiy FV larni prognozlash hamda oq'ibatlarini ijtimoiy-iq'tisodiy baholash;
- iq'tisod tarmoq'larini, korxonalarni, muassasa va tashkilotlarni mulkiy formalaridan q'at'iy nazar faoliyat ustuvorligini oshirish;

- FVlarni ogohlantirish va oq'ibatlarini yo'q'otish boshq'aruv tizimi, kuch va vositalarni doimo tayyor holda bo'lishlarini ta'minlash;
- FV holatida aholini va hududni himoyalash bo'yicha axborotlarni o'z vaq'tida yigish, ishlab chiq'ish, ayriboshlash va tarq'atish;
- Aholini, rahbar shaxslarni, boshq'aruv organlarini, FVDS kuch va vositalarini oldindan tayyor holga keltirib q'o'yish;
- FVlar oq'ibatini tugatish uchun moliyaviy va moddiy zahira tashkil q'ilish;
- FVdan zarar ko'rgan aholini himoyalash va xalq'aro hamkorlik.

FV da FM tizimini faoliyatini tashkil etish asosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4.03. 96 y. dagi "O'zbekiston Respublikasi FV vazirligini tuzish tug'risida"gi buyrug'i bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligining FV va FM boshq'armasi asosida O'zbekiston Respublikasi FV vazirligi tuzilishi ko'rsatilgan va bu vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari, hamda aholi va xalq' xo'jaligi ob'ektlarini muhofazasini ta'minlash bo'yicha raxbarligi aniq'langan.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 11.04. 1996 yildagi N 143 q'arori: "O'zbekiston Respublikasi FVV faoliyatini tashkil etish masalalari"da FVV to'g'risida Nizom va uni strukturasi tasdiq'langan. Unda aytilishicha FVV FM sohasida, FVni ogohlantirish va asoratlarini bartaraf etishda davlat boshq'aruvining markaziy organi hisoblanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 23.12. 1997 yildagi "O'zbekiston Respublikasi FVni ogohlantirish va unda faoliyat ko'rsatish Davlat tizimi to'g'risida"gi q'arorida FV davlat tizimi va uning strukturasi tasdiq'langan.

FV davlat tizimi boshq'aruv organlari Respublika va mahalliy xokimiyat organlari korxona, tashkilotlar kuch va vositalarini birlashtiradi. (Bu organlar aholi va hududlarini FV da muhofaza q'ilish bo'yicha vakolatlarga ega bo'ladilar).

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 27. 10. 1998 yildagi N455 "Texnogen, tabiiy va ekologik FV klassifikatsiyasi to'g'risida"gi q'arori, unda mumkin bo'lgan FV va ularning klassifikatsiyasi aniq'langan.

5. "Aholini va xududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida. 2010 yil 17 sentyabr.

6. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi 2000 yil 26 maydagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

7. "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkurandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida"gi 2000 yil 31 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

8. "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi 2000 yil 31 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

9. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi 2000 yil 15 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

10. "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi 2006 yil 28 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

11. O'zbekiston Respublikasi "Texnogen va tabiiy holdagi FV da aholi va hududlarni muhofazasi to'g'risida"gi q'onun, Prezident va Vazirlar Maxkamasining FM bo'yicha buyruq va q'arorlari asosida tayyorlangan bo'lib, unda aholi va hududlarni FV da barcha bosq'ichdagi davlat boshq'aruv organlari korxonalar, tashkilotlar tomonidan muhofaza q'ilish asosiy printsiplari, maq'sadlari, vazifalari va usullari ko'rsatib berilgan.

Fuq'aro Muhofazasi maxsus tadbirlarining bajarilishini ta'minlash hamda ushbu maq'sadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun Respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek, ob'ekt miq'yosidagi fuq'aro muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi.

FM kuchlari FM q'o'shinlari tizimlaridan tarkib topadi. FM kuchlari va vositalarining tarkibi, ular tuzilishi, shuningdek, muhofaza turlari faoliyatining boshq'a jixatlari O'zbekiston Respublikasi FM boshlig'i tomonidan belgilab q'o'yiladi. FM vazifalarini hal etishda FVV kuchlaridan tashq'ari O'zbekiston Respublikasi q'urolli kuchlarining q'utq'aruv tizimlari, q'ismlari ham jalb etilishi mumkin. FVV FM ning q'o'shinlari O'zbekiston Respublikasi FM kuchlarining asosini tashkil etadi. FM q'o'shinlarining harbiy davrdagi asosiy vazifalari q'uyidagilardan iborat:

a) zararlanish o'choq'larida va zaharlanish hududlarida muxandislik, radiatsiyaviy, kimyoviy va boshq'a q'idiruv turlarini olib borish;

b) q'utq'aruv va boshq'a kechikirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish;

v) aholini va xalq' xo'jaligi ob'ektlarini evakuatsiya q'ilishda ishtirok etish;

g) aholi hayot faoliyatini ta'minlash; ob'ektlarni tiklash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish hamda FMning boshq'a vazifalarini bajarishdan iborat.

Ishlab chiqarishda tashkil etilishiga qarab esa: vazirliklar, davlat qo'mitalari, korxonalar, assotsiatsiyalarda tuziladi va atrof-muhit holatini, ob'ektlardagi yashirin xavflarni, hamda o'z tasarruflaridagi ob'ektlarda FVlarni ogohlantirish va oqibatlarini tugatish ishlarini olib boradilar.

FVDSning har bir darajasi quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- boshqaruv organlariga;
- kundalik boshqaruv organlariga;
- FVlar oqibatini tugatish kuch va vositalariga;
- moliyaviy va moddiy boyliklar zaxiralariga;

- xabar berish va aloqa sistemasiga. Avtomatik boshqaruv sistemasi va axborot ta'minotiga.

I. Fuqaro himoyasi kuchlari – O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududini tinchlik va urush vaqtida tabiiy, ekologik va texnogen FVlardan himoyalovchi davlat, mahalliy va boshqa tizim hamda qismlar majmuidir.

FH kuchlari quyidagilardan tashkil topadi:

1. FVV, MV va IIV larning harbiy qism va bo'linmalari;
2. FVVning bevosita va tezkor maxsus qismlari;
3. Vazirlik va tarmoqlarning qismlari;
4. FH hudud va ob'ektlaridagi xarbiylashgan qismlari, shu jumladan urush vaqtida ham.

II. Fuqaro himoyasining vositalari – bu O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududini tinchlik va urush vaqtida himoyalash uchun zarur bo'lgan moliyaviy va moddiy–texnik boyliklari yig'indisidir.

Moliyaviy boyliklar davlat, FVV, vazirliklar, tarmoqlar, xokimliklar, korxona va tashkilotlar, hamda jamoat tashkilotlari mablag'laridan tashkil topadi.

Texnika va mulk turlari bo'yicha FH vositalari: kimyoviy, aloqa, muhandislik, yong'in muhofazasi, tibbiy va front orqasi xizmatlaridan iborat.

III. O'zbekiston Respublikasi FM tizimi tabiiy ofatlar, avariylar, falokatlar, epidemiya, epizootiya va boshqa favqulodda vaziyatlar paytida aholi va hududni himoyalashga qaratilgan umumdavlat tadbirlar tizimidir.

O'zbekiston Respublikasi FM tizimi barcha davlat va jamoat tashkilotlari tizimlari tomonidan ta'minlanadi va ma'muriy xarakterga ega.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti:

- FH bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishini belgilaydi;
- FV vujudga kelganda Konstitutsiyaning 93-moddasiga binoan Respublika hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat e'lon qiladi;
- FV vujudga kelganda O'zbekiston Respublikasi harbiy kuchlarini, boshqa harbiy qism va bo'limlarini FV oqibatlarini bartaraf qilish uchun jalb qilishi mumkin.

2-mavzu: O'zbekistonda kuzatiladigan tabiiy ofatlar va ularning oqibatlari.

Favqulodda vaziyatlar tasnifi

Darsning maqsadi: O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda vaziyatlarni o'ziga hos tomonlari, ularni yuzaga kelish sabab va oqibatlari haqida ma'lumot berish.

Asosiy savollar:

1. O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda vaziyatlarni o'ziga hos tomonlari.
2. Favqulodda vaziyatlarni o'ziga hos tomonlari, ularni yuzaga kelish sabab va oqibatlari
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1998 y. 27 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasidagi texnogen va tabiiy tusdagi favkulodda vaziyatlarni klasifikatsiyasi to'g'risida»gi 435-sonli Qarori

Tayanch so'z va iboralar:

Favqulodda vaziyat, hudud, shikastlanish o'chog'i, qirg'in qurollari, tabiiy ofat, zilzila, suv toshqini, yer surilishi, sel, himoya inshootlari, epidemiya

Talabalar uchun idetiv o'quv maqsadlar:

- 1.1.1.** O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda vaziyatlarni o'ziga hos tomonlari haqida ma'lumot bera oladi.
- 1.1.2.** Favqulodda vaziyatlarni o'ziga hos tomonlari, ularni yuzaga kelish sabab va oqibatlari haqida ma'lumotga ega.
- 1.1.3.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1998 y. 27 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasidagi texnogen va tabiiy tusdagi favkulodda vaziyatlarni klasifikatsiyasi to'g'risida»gi 435-sonli Qarori bilan tanishgan.

2-mavzuning bayoni:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mamaxkamasi qaroriga binoan bizning Respublikamizda bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi yetti FV lar tasdiqlangan:

- 1 – zilzilalar;
- 2 – sel, suv toshqinlari va boshqa gidrometeorologik xodisalar;
- 3 – kimyoviy havfli ob'ektlarda avariya va falokatlar (O'ZM ajralib chiqishi xam kiradi).
- 4 – portlash va yong'in havfi mavjud obektlardagi avariya va falokatlar;
- 5 – O'ZM larni temir yo'l va boshqa transport vositalarida tashish paytidagi avariya va falokatlar.
- 6 – havfli epidemiologik sharoitlarning vujudga kelishi;
- 7 – radioaktiv manbalardagi avariya.

Ularning qisqa xarakteristikalarini va odamlarga, xamda XXO larda ta'sirini ko'rib chiqamiz.

1. Zilzilalar – bular eng havfli va vayron qiluvchi tabiiy ofatlarga kiradi. Zilzila – bu yer osti zarbasi va yer ustki qatlamining tebranishi, bo'lib, tabiiy sabablar, asosan tektonik jarayonlar tufayli yuzaga keladi. yer osti zarbasining paydo bo'lish o'chog'i, yerning satxi qatlamidagi uzoq vaqt yig'ilib qolgan energiyaning ozod bo'lish jarayoni tufayli yuzaga keladi. O'choqning

markazida shartli ravishda nuqta tanlab olinadi, buni gipotsentr deyiladi. Gipotsentrning yer yuzasiga tushirilgan proektsiyasi epitsentrl deyiladi. Ilgari barcha zilzilalarning o'chog'i yerning ustki qatlamida 8 km chuqurlikda paydo bo'ladi deb tushunilar edi. Lekin, hozirgi paytda fanga ko'pgina zilzilalarning paydo bo'lish o'choqlari uning 2900 km qalinlikdagi, qattiq xolatdagi mantiya qatlamida vujudga kelishi ma'lum. Mantiyadagi katta bosim yoki portlashlar tufayli zilzila o'chog'i vujudga keladi, natijada katta kuchlanishlar paydo bo'ladi, bular o'z navbatida yerning ustki qatlamini tebranishiga olib keladi. Gipotsentrdan xamma tarafga elastik seysmik to'lqinlar tarqaladi, ular asosan uzunasiga va ko'ndalang turlarga bo'linadi.

yer ostida uzunasiga tarqalayotgan to'lqinlar o'z yo'nalishi bo'yicha navbatma– navbat yer po'stlog'ini siqib va tortib turadi va yer yuzasiga chiqqanda esa tovush chiqaradi. Ular yer ostida guvvillash va gumburlash tovushlarini paydo qiladi.

Ko'ndalang to'lqinlar yer yuziga chiqib zilzila to'lqinlarini vujudga keltiradi, ular epitsentrdan barcha taraflarga tarqaladilar. Ko'ndalang to'lqinlar uzunasiga yo'nalgan to'lqinlarga nisbatan havfliroqdir, ular yer yuzasidagi barcha narsalarni vertikal va gorizantal yo'nalishlar bo'yicha tebratgani tufayli ko'proq vayronagarchiliklarga olib keladi. Zilzila o'choqlari xar xil chuqurlikda paydo bo'lishi mumkin. Ko'proq yer po'stlog'ining 20-30 km i da, ba'zan yuzlab km chuqurliklarida bo'lishi mumkin. (masalan 1977 yildagi Moldoviya va Ruminiyadagi zilzila – 150 km chuqurlikda bo'lgan)

Suv toshqinlarining asosiy sabablari:

1. Kuchli yomg'ir yog'ishi(jala, sel quyishi);
2. Tog'dagi qorlarning jadal erishi;
3. Daryo oqimiga qarshi kuchli shamol esishi;
4. Daryo yuzalaridagi muzliklarning yig'ilib, sun'iy to'g'on xosil qilishi;
- 5.Tog' jinslarining nurashi, surilishi yoki boshqa sabablar bilan suv omborlarining buzilishidir.

Hozir O'zbekistonda 53 ta suv saqlanadigan omborlar qurilgan, ulardan 10 tasi qo'shni respublikalar chegarasida joylashgan.

Respublikamizga tegishli bo'lgan suv omborlarida 55,5 mlrd m³ dan ortiq suv saqlanib, ular orqali asosan qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlab, katta iqtisodiy samara olinadi. Lekin shu bilan birga bunday gidrotexnik inshootlar biror sababga ko'ra buzilsa, saqlanayotgan suvning ta'siri insonlarga, uy hayvonlariga, atrof-muhitga juda katta jiddiy zarar keltiradi. Jumladan Chorvoq suv omborida 2,1 km³ suv saqlanib, agar u buzulgudek bo'lsa, undagi suv 8 m qalinlikda 46 km/soat tezlik bilan harakatlanib.Toshkent shahrining uchta:

Bektemir, Hamza, Sergeli tumanlari batamom, boshqa 3ta – Mirobod, Mirzo Ulug'bek va Yakkasaroy tumanlari esa qisman suv ostida qolib, u yerlarda yashayotgan fuqarolar xayoti uchun havf tug'iladi.

Shunga o'xshash katta xajmdagi suv Tuyu – Mo'yin suv omborida 5km^3 dan ortiq. Qayroqqum suv omborida 4km^3 dan ortiq suv saqlanib, mabodo biror sababga ko'ra ombor qismlari talofot ko'rsa Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarini suv bosadi. Agar To'xtagul suv ombori talofot ko'rsa (19km^3) butun Farg'ona vodiysi viloyatlarini suv bosishi ehtimoli bor.

Sel – tog'lardan kuchli jala quyishi tufayli oqib kelayotgan suv, qum, loy, tosh va shox-shabbalar oqimidir.

Sel – oqimi massasining taxminan 50-60 % turli kattalikdagi tog' jinsi yig'indilaridan, o'simlik va daraxt bo'laklaridan iborat bo'ladi. Sel oqimining davomiyligi 0,5-2 soatdan 12 soatgacha, tezligi 5-8 m/s dan 12 m/s gacha yetishi mumkin, sel massasining zichligi esa 1,2-1,9 t/m³ ni tashkil etadi. Sel yo'lida uchragan suv inshootlarini, yo'llarni, qishloq va shaharlarni, bog'larni, ko'priklarni vayron qilib ketadi, ulkan maydonlarni loy, qum, tosh qatlamlari bilan ko'mib tashlaydi.

Sel – arabcha so'z bo'lib, tog'lik xududlardagi suv toshqini ma'nosini bildiradi.

Sel oqimlari o'zi bilan olib keladigan qattiq zarrachalarning o'lchamiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

◇ suv-toshli sellar;

◇ loyqa sellar;

◇ aralash sellar.

Olma-Ota shahri va uning atrofida juda ko'p marta talofotli sel oqimlari kuzatilgan. Ularning biri Medeo sel to'g'oni qurilgandan keyin, 1973 yili 15 iyul kuni ro'y bergan. Shu kuni kuchli yomg'ir ta'sirida baland tog'likdagi tabiiy ko'l to'g'onlarining buzilishi natijasida kuchli sel oqimi paydo bo'lgan. Bu oqim taxminan 2 soat davom etib, uning sarfi 2000-3000 m³/s ga yetgan va Medeo to'g'oniga 400 mln.m³ sel massasi olib kelib tashlagan. Ertasi kuni sel qayta takrorlanganda Medeo seli to'g'onidan oshib ketishiga atigi 6m masofa qoladi. Agar sel to'g'onidan oshib xarakatlansa, Olma-ota shahriga juda katta havf tugdirishi mumkin edi. Shuning uchun buning oldini olish maqsadida to'g'ondagi suv chiqarib yuborilgan va keyin uning balandligi 150 m gacha ko'tarilgan.

Oxirgi 100 yil ichida O'zbekiston xududida 2500dan ortiq sel oqimlari kuzatilgan. Bulardan 1400 ko'pi loyqa, 350 dan ko'pi suv-toshli, 650dan ko'pi aralash sellardir. Respublikamizning Farg'ona vodiysi, Toshkent oldi xududlarida xam sel oqimlari kuzatilib turiladi. Sel oqimlari ko'proq bahor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi. Bunga

sabab xududimiz joylashgan mintaqaning tabiiy sharoiti bo'lib, bahor oylarida kuchli jala, yomg'irlar, xaroratning issiq kelishi, tog'larda muzlik va qorlarning jadal erishi va sh.o'. sabablardir.

O'pirilish (ko'chki, yer siljishi) – ko'pincha daryo va suv havzalari qirg'oqlarida, tog' yonbag'rlarida, jarliklar, 45° qiyaliklar ustida sodir bo'ladi. Buning sababi tuproq yer osti suvlari bilan to'yinib, qiyaliklardagi muvozanat sharoitini buzadi va natijada uning ustidagi uy va inshootlari bilan birgalikda pastga siljib, o'pirilib ketadi.

Ko'chki belgisi – eshik va derazalar o'z joyiga tushmaydi, ochiq bo'lsa yopilmaydi, yopiq bo'lsa ochilmaydi.

Ko'chkilar oqibatida xalq xo'jaligi katta zarar ko'radi, ba'zi yirik inshootlar, yo'llar bir necha yuz metrlarga surib tashlanadi, katta-katta ekin maydonlari foydalanishga butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi, butun-butun qishloqlar, shaxarlar vayron bo'ladi, minglab kishilar boshpanasiz qoladi, xalokatga uchraydi.

Ko'chkilar surilish tezligining sekin, o'rtacha va kuchli xillari bo'lib, birinchisida surilish bir necha santimetrغا, o'rtacha surilishda bir necha metrغا, kuchli bo'lganda esa tog' jinslari bir necha kilometrغا suriladi. Ayni kuchli yer surilishi halokatli bo'lib, ko'plab odamlarning o'limi kuzatiladi. Ko'chkilarda tog' jinsining massasi bir necha mln., ba'zan mlrd. kub metrغا yetadi.

Markaziy Osiyo Respublikalari xududlarida xam hozirgi kungacha ko'pdan-ko'p ko'chkilar kuzatilgan. Jumladan 1911 yil 18 fevral kuni Pomirning Muzko'l tog' tizmasida 9 ballik zilzila natijasida Usoy yer surilishi sodir bo'lgan. Bu zilzila ta'sirida $2,5 \text{ km}^3$ tog' jinsi Murgob daryosiga surilib tushgan. Bunda surilish 2,5 km masofani bosib o'tib daryo o'zanini to'sib qo'ygan. yer surilishi bo'lgan joyga qalinligi 450-500m, uzunligi 2km, kengligi 1km qumtosh, oxaktosh, gips va boshqa tog' jinslaridan iborat massa surilgan. Talafot natijasida Usoy qishlog'i ko'chki ostida qolib 54 kishi nobud bo'lgan. Daryo o'zani to'silib, balandligi 703-788m, eni 4,3-5,3km bo'lgan tabiiy to'g'on vujudga kelgan. Hozirgi paytda bu yerda dunyoga mashhur Sorez ko'li mavjud va yig'ilgan suv miqdori Norak suv ombori suvi xajmiga to'g'ri keladi.

1987 yil 7 dekabrda Tojikistonning Sharora qishlog'ida ro'y bergan ko'chki natijasida, taxminan kengligi 900m, qalinligi 70m ga yaqin bo'lgan tog' jinsi xarakatga kelib, 540dan ortiq insonning yostig'ini quritgan.

1991 yil Oxangaron vodiysida yana bir kuchli «Jigariston» ko'chkisi sodir bo'ldi. Ma'lumotlarga qaraganda bu ko'chkida xajmi 30 mln.m^3 , g'ovak tuproq 7 minut davomida surilib, 50dan ortiq inson xayotini olib ketgan. «Shaxterlar» ko'chasini butunlay loy massasi qoplab berkitib qo'ygan.

1994 yil 16 aprelda Oxangaron tumanining Qoraqishloq xududida xam shunday xolat kuzatilib, bu falokatda xam insonlar aziyat chekkanlar.

Ko'chkilarning oldini olish usullari:

- Qiya satxlarda qurilish va ular bilan bog'liq bo'lgan kavlash ishlarini olib bormaslik;
- Qiya satxlarda tog' jinsi to'kilmalarining yig'ilishiga yo'l qo'ymaslik;
- Temir yo'l, transport vositalari xarakat tezligini belgilangandan oshishini ta'qiqdash;
- Qiya satxlardagi o'simlik dunyosini muhofaza qilish;
- Qiya satxlarda sug'orish, shudgorlash olib bormaslik.

Har bir FV o'zining fizik mohiyatiga, faq'at o'ziga xos paydo bo'lish sababalariga, harakatlantiruvchi kuchiga, rivojlanish, odamga va uning yashash muhitiga ta'sir q'ilish xarakteriga ega. Shundan kelib chiq'ib FVlarni q'uyidagicha tasniflash mumkin:

- paydo bo'lish sababi bo'yicha;
- tarq'alish tezligi bo'yicha;
- jarohatlovchi omillarning tarq'alish masshtabi bo'yicha;

1. Paydo bo'lish sababi bo'yicha FV larni q'uyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- tabiy ofatlar;
- texnogen falokatlar;
- antropogen va ekologik fojealar;
- ijtimoiy - siyosiy nizolar;

Tabiiy ofatlar bular geologik, gidrogeologik, atmosfera, biosferalarning falokatli vaziyatlarga olib keluvchi, aholining hayotiy faoliyatini keskin yomonlashtiruvchi, odamlar o'limiga va moddiy boyliklarning buzilishiga va q'irilib ketishiga olib keluvchi havfli hodisadir. Bularga zilzilalar, suv toshq'inlari, tsunamilar, vulq'onlarning otilishi, sellar, yer siljishi, bo'ronlar, q'uyunlar, smerch, o'rmonlardagi yong'inlar, q'urg'oq'chilik, uzoq' muddatli yog'ingarchiliklar, q'attiq' sovuq'lar, epidemiyalar, epifitotiyalar, q'ishloq' xo'jalik zararkunandalarining ko'payib ketishi va boshq'alar kiradi.

Tabiiy ofatlar davlatning milliy fojeasi hisoblanadi, ayniq'sa ofat sodir bo'lgan hududlar uchun. Tabiiy ofatlar davlatning iqtisodiga katta moddiy zararlar keltiradi, odamlarning o'limiga, yuq'umli kasalliklarning ko'payib ketishiga olib keladi (o'rta hisobda shulardan 40% suv toshq'inlariga, 20% bo'ronlarga, 15% zilzila, 15% q'urg'oq'chilikka va 10% boshq'a ofatlarga to'g'ri keladi).

Texnogen falokatlar – bular texnologik jarayonning buzilishi, mexanizm, mashina, agregat va uskunalarning to'satdan ishdan chiq'ishi shu tufayli yong'in, katta hududlarda

portlash, radioaktiv va kimyoviy zaharlanish, odamlarning zaharlanishi, nurlanishi va o'limga olib keluvchi hodisalardir.

Texnogen falokatlar tabiiy omillar, shu q'atorda tabiiy ofatlar tufayli, loyiha ishlab chiq'arish nuq'sonlari tufayli, texnologik jarayonning buzilishi tufayli, transport vositalarining noto'g'ri ishlatilishi tufayli vujudga kelishi mumkin. Lekin, eng ko'p tarq'algani xavfsizlik texnikasi q'oidalarining buzilishidir.

Ishlab chiq'arishda bo'lishi mumkin bo'lgan ofatlarni sababini bilish, ogohlantirishni to'g'ri tashkil q'ilish hamda odamlarning hayotini saq'lab q'olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kimyoviy usul ba'zi bir kimyoviy moddalarning nurlanish ta'sirida rangini o'zgarishiga asoslangan. DGT-70, DP-70M dozimetrlari ana shu jarayon asosida ishlaydi.

Stsintillyatsion usul ayrim moddalarning radioaktiv nurlanishlar ta'sirida ko'rinadigan yorug'lik fotonlarini chiqarishiga asoslangan. Ushbu yorug'lik chiqishlarini (chaqnashlarini) yozib olish (stsintillyatsiya) mumkin.

Lyuminescent usul ba'zi moddalarning (faollashtirilgan kumush, metafosfor oyna, ftorli litiy) yadro nurlanishi ta'sirida energiya to'plash qobiliyatiga asoslangan. Radioaktiv nurlar ta'siridan keyin bu moddalar ul trabinafsha nurlari bilan qizdirilganda yoki yoritilganda laboratoriya sharoitida o'lchash mumkin bo'lgan energiyani beradi (termolyuminescent va oynali dozimetrlar).

Ionlash usuli mohiyati yadroviy nurlanishlar ta'sirida ma'lum hajmdagi havo yoki gazning ionlanishidan iborat. Bunda elektr neytral atomlardan musbat va manfiy zaryadlangan ionlar hosil buladi. Agar mana shu hajmga 2 ta elektrod kiritilib, ularga o'zgarmas kuchlanishli elektr toki ulansa, elektrodlar orasida elektr maydoni paydo bo'ladi, bunda zaryadlangan zarrachalarning yo'nalgan harakati yuzaga keladi: manfiy zaryadlangan ionlar anodga, musbat zaryadlanganlari katodga tortiladi, natijada elektrodlar o'rtasidagi potentsiallar ayirmasi kamayib

boradi. Shunday qilib, ionizatsiya toki deb ataluvchi tok hosil bo'ladi. Uning kattaligini o'lchab, radioaktiv nurlanishlarning intensivligi to'g'risida tasavvur olinadi.

DP-5 dozimetrik asbobining vazifasi, tuzilishi va ishlash


jarayoni

Joylarda radiatsiya darajasini, radioaktiv moddalarni aniqlashda va tashqi muhit ob'ektlarining radioaktiv ifloslanishini o'lchashda DP-5 dozimetridan foydalaniladi.

Butun ta'sir va yutilgan nurlanish dozasi DP-22V, DP-24, DP-23A, ID-1, ID-11 dozimetrlar komplekti bilan o'lchanadi. Shaxsiy dozimetrlar radioaktiv moddalar bilan zararlangan joylarda bo'lganda olingan shaxsiy dozalarni o'lchaydi.

Tashqi muhitda foydalaniladigan ko'pgina dozimetrik asboblarning ishlash jarayoni radioaktiv nurlarning havoda tarqalganda muhitni (gazni) ionlash qobiliyatiga asoslangan.

Ionlash usuli asosida ishlovchi asboblarning qabul qiluvchi, ko'chaytiruvchi, o'lchovchi qurilmalar va ishlashni ta'minlovchi energiya manbaidan iborat bo'ladi



Radiometrik asbobning tuzilish sxemasi.

1-ionlash kamerasi; 2-elektrometrik lampa; 3- qarshilik; 4-milliampermetr; 5-energiya manbai

Qabul qiluvchi qurilma (datchik yoki nurlar detektori)-ta'sir etuvchi radioaktiv nurlar energiyasini boshqa turdagi (elektr, kimyoviy, yorug'lik) energiyaga aylantirish uchun mo'ljallangan. Qabul qiluvchi qurilma sifatida dala asboblari ionlash kamerasi va gazorazryad hisoblagichlar qo'llaniladi.

Ionlash kamerasi havo bilan to'ldirilgan germetik idish bo'lib, unga korpusdan ajratilgan markaziy elektrod o'rnatilgan. Kamera devorlari izolyatsiyalovchi materiallardan tayyorlangan bo'lib, ularning ichki tomoni tok o'tkazuvchi materiallar bilan qoplangan. Tashqi manbadan kamera elektr toki kuchlanishi berilib, bu markaziy elektrod va kamera devorining tok o'tkazuvchi qavat o'rtasida potentsiallar ayirmasi hosil qiladi. Radioaktiv nurlar yo'q bo'lganda,

havo elektrodlar o'rtasida izolyator bo'lib hizmat qiladi, kamera zanjirida tok bo'lmaydi. Radioaktiv nurlar ta'sirida havo kamerasida ionlanish sodir bo'ladi, kamera zanjirida ionlash toki paydo bo'ladi. Bu tok kattaligi kamera orqali o'tayotgan radioaktiv nurlar dozasi quvvatiga bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan juda oz bo'lgan tok kuchaytiriladi va so'ngra mikroampermetr yordamida o'lchanadi. Ionlash kamerasi gamma-kvantlarni yozib oladi.

Gazrazryadli hisoblagichlar - metall yoki oynadan qilingan tsilindrlar bo'lib, ular ichki tomonidan tok o'tkazuvchi material qatlami (katod) bilan qoplangan. TSilindr ichida, o'qiga ko'ndalang tsilindrdan ajratilgan metall tola (anod) tortilgan. Hisoblagichdan havo chiqazilib, siyraklantiriladi, keyin tsilindr qisman argon yoki boshqa inert gaz bilan to'ldiriladi. Metall tolaga va tok o'tkazuvchi qatlamga elektr toki kuchlanishi ulanadi. Yozib olinadigan nurlanishning turiga qarab hisoblagich devorlari har hil materialdan tayyorlanadi. Gamma-nurlanishini yozib olish uchun ularni ichki tomoni mis qoplangan oynadan, beta va al fa nurlarini o'lchash uchun devorlari yumshoq fol ga yoki plyonka bilan qoplanadi.


Kuchaytiruvchi qurilma-past signallarni yetarli darajada kuchaytirishga mo'ljallangan. Ko'pincha kuchaytiruvchi qurilma sifatida elektrometrik chiroqlardan foydalaniladi.

O'lchash qurilmasi -qabul qilib oluvchi qurilma tomonidan ishlab chiqilgan signallarni o'lchash uchun hizmat qiladi.

Energiya manbai -asbob ishini ta'minlaydi. Bu maqsad uchun quruq elementlar yoki akkumulyatorlardan foydalaniladi.

DP-5A,	DP-5B,	DP-5V	asboblarning	asosiy	taktik	-tehnika
ma'lumotlari			va			vazifasi

DP-5A DP-5B, DP-5V asboblari -40° dan Q50° gacha haroratda va 65% nisbiy namlik bo'lgan sharoitlarda yahshi ishlaydi. Asbob zondini suvga 50sm chuqurlikkacha tushirish mumkin. Asbobning og'irligi- 7,6 kg. Asbob komplektiga ikki qayishi bilan asbob qini va kontrol manba (strontsiy-90), uzatuvchi shtanga, akkumulyatorga lash uchun kabelli kuchlanishni bo'luvchi, element uskunalar komplekti, telefon, hujjatlari kiradi.



- 1-zond; 2-tutashtiruvchi kabel ;
 3-shkala; 4-poddiapazonlar;
 5-shkalani yorituvchi chiroq;
 6-rejim dastagi; 7-strelka
 ko'rsatishini nolga keltiruvchi knopka; 8-
 telefonlar;
 9-beta-nurlanishni tekshiruvchi indikator.

Energiya diapazoni 0,084 dan 1,25 Mev gacha bo'lganda gamma-nurlashlar bo'yicha o'lchashlar diapazoni 0,05m R/s dan 200 R/s gachani tashkil qiladi. O'lchash asbobi 6 ta poddiapazonlarga ega.

II- VI poddiapazonlardagi ko'rsatkichlar yuqori shkala bo'yicha olinadi va mos keluvchi koeffitsientlarga (1000, 100 va h.k.) ko'paytiriladi. Noldan birinchi ko'rsatgan raqamgacha bo'lgan bo'laklar ishchi bo'lmagan bo'laklar hisoblanadi. Normal sharoitda ko'rsatish hatosi $\pm 35\%$ dan oshmaydi.

DP-5A DP-5B, DP-5V asboblarning o'lchash poddiapazonlari


Poddiapa-zonlar	Poddiapazonlarni o'tkazuvchi dastak holati	Shkala	O'lchov birligi	O'lchashlar oralig'i	Ko'rsatkich-larni aniklash vaqti (s)
I	200	0-200	R/s	5-200	10
II	H1000	0-5	mR/s	500-5000	10
III	H100	0-5	mR/s	50-500	30
IV	H10	0-5	mR/s	5-50	45
V	H 1	0-5	mR/s	0,5-5	45
VI	H 0,1	0-5	mR/s	0,05-0,5	45

Asbobning tuzilishi. Asbob o'lchov pul ti, uzunligi 1,2m bo'lgan yumshoq kabel bilan ulangan zondan va energiya manbaidan iborat. Asbobning paneli, kojui va qopqog'i yuqori chidamli shisha tolali materialdan tayyorlangan. Asbob qutisining materiali sun'iy teridan bo'lib, ikki bo'limdan iborat: biri asbob, ikkinchisi zond uchun mo'ljallangan. Quti qopqog'i ichki tomonida asbobdan foydalanish qoidasi yozilgan. DP-5A DP-5B asboblarida esa kontrol strontsiy manbai o'rnatilgan. DP-5V asbobida kontrol strontsiy manbai zondga joylashtirilgan. Qutiga asbobni olib yurish uchun 2 ta siljувchi qayish ulangan. Shuningdek, g'ilof tagida ya'ni kojui ostida energiya manbai (uchtabateriya)ni joylashishi uchun alohida joy ajratilgan bo'lib, ozuqa elementlari yo'qligida bunga o'zgaras tok ma'nbadagi kuchlanishni ulab foydalanish mumkin. Akkumlyator kuchlanishni bo'luvchi 10m uzunlikdagi kabel yordamida ulanadi.

Asbob zondi teshigiga suvga chidamli etilsellyuloza plyonkasi yopishtirilgan. Korpusga kesib olingan buruluvchi metall ekran o'rnatilgan. Ekran "B" holatga burilganda korpus teshigi ochiladi va hisoblagich beta-zarrachalar miqdorini ko'rsatadi, "G" holatda korpus teshigi ekran bilan yopiladi va hisoblagich faqat gamma-nurlar miqdorini ko'rsatadi. "B" va "G" holatlarda ekran fiksatorlar bilan mahkamlanadi.

Zond korpusi ichida plata bo'lib, unga gazrazryad hisoblagichi (STS 5 va SIZBG), kuchaytiruvchi-me'yorlashtiruvchi qurilma va asbobning elektr shemasi o'rnatilgan. Hisoblagichlar gamma-kvantlar va beta-zarrachalar ta'sirida elektr impul'slari chiqaradi va bu impul'slar kuchaytiruvchi-me'yorlashtiruvchi qurilmaga o'tadi. Ulchashga qulay bo'lishi uchun zondga tutqich mahkamalangan, unga uzaytiruvchi shtanga ulash mumkin.

O'lchovchi qurilma panel va kojuidan tashkil topgan



O'lchovchi pul t paneli

1-shkala, 2-o'lchash pul ti, 3-shkalani yorituvchi chiroq, 4-poddiapazonlarni o'zgartiruvchi, 5-birlashtiruvchi kabel, 6-nolga keltiruvchi vint, 7-telefon ulanadigan joy, 8-strelka ko'rsatishini nolga keltiruvchi knopka, 9- "Rejim" dastagi.

Panel ikki hil shkalali mikroampermetr (tepadagisi 0 dan 5 mR/s va pastkisi 5 dan 200 R/s gacha), poddiapazonlarni o'zgartiruvchi, rejimni boshqaruvchi potentsiometr, ko'rsatishlarni almashtiruvchi knopka, shkalani yorituvchi tumbler, nulga keltiruvchi vint, telefonni ulaydigan joydan iborat. Panelga zond bilan o'lchaydigan pul tni birlashtiruvchi kabel ulangan. Panel kojuhga maxsus vintlar bilan mahkamlanadi.

Poddiapazonlarni o'zgartiruvchi qurilmaning quyidagi hollari bor; 100, *1000, *100, *10, *1, *0,1. Ularni asbobni kuzatishda va gamma-n sh dozalar quvvati har hil kattaligini o'lchashda foydalaniladi.

O' l c h a s h s h k a l a l a r i . Yuqoridagi shkala gamma-nurlanishning doza quvvatini *1000; hYuO; h10; h1; hODpoddiapazonlarda o'lchash uchun mo'ljallangan. Bunda zond ekrani "G" holatda bo'lishi kerak. Zond oynasi ochiq holda ("B" holatda) tekshirilayotgan ob'ektdan 1-1,5m masofadagi beta-nurlanishlar miqdori aniqlanadi. Bunda gamma va beta-nurlanishlarning umumiy dozasi o'lchanadi.

Tepadagi shkalada qoraga bo'yalgan uchburchak va yoy bo'lib, ulardan asbobni sozlashda foydalaniladi. Doza quvvati 5 R/s bo'lganda, tepadagi shkala bo'yicha o'lchanadi. Rejimni rostlovchi potentsiometr asbobga uzatilayotgan elektroeneriyani moslab turadi va ulaydi.

K o ' r s a t i s h l a r n i o l i b t a s h l o v c h i k n o p k a qayta o'lchash talab etilganda asbob strelkasini tezda nol holatiga keltirish uchun hizmat qiladi. O'lchov asbobi strelkasi knopka yordamida nolga qaytmasa nolga keltiruvchi maxsus vintdan foydalaniladi. Buning uchun saqlovchi vint yechib olinib, uning tagida turgan ikkinchi vint buraladi va strelka nol holatiga qo'yiladi. So'ng yechib olingan saqlovchi vint joyiga qayta burab qo'yiladi.

A s b o b n i i s h l a t i s h uchun 1,6-PMTS-H-1,05 (KB-1) tipidagi Zta batareyadan foydalaniladi. Uchinchi batareya shkalani yoritish uchun mo'ljallangan chiroqchaga energiya beradi. Asbob yordamida nurlanishni aniqlash uchun maxsus korpusga metaldan yasalgan buraluvchi ekran kiygazilgan. Korpus o'z navbatida ("G"va "B") zonada ikki holatda va detektir blokida ("G", "B" va "K") uch holatda korpus darchasi ekran bilan yopiladi va shu vaqtda hisoblagichga vaqt gamma nuri o'tishi mumkin.

Ekran "B" holatiga burilganda korpusning darchasi ochiladi va beta zarrachalar hisoblagichga kiradilar. DP-5V priborining ishchanligi tekshirish uchun maxsus beta nurlanishning kontrol ma'nbai "K" holatida ekrancha darchasiga qarama qarshi chuqurlashtirib mahkamlanadi va priborining ishlayotganligini aniqlanadi.

Bundan tashqari 3,6 va 12 V kuchlanishli akkumlyatordan ham foydalanish mumkin. Energiya manbai komplekti yangi elementlardan foydalanganda asbobning 40 soat mobaynida uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

T e l e f o n - boshchalari yumshoq materialdan bo'lgan ikkita kichik o'lchamli TG-7M tipidagi telefondan tashkil topgan. Bularni o'lchagich pul tiga ulab radioaktivlikning borligini tovush yordamida aniqlash mumkin. Radiatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, shuncha tovush belgilari eshitaladi. U 200 poddiapazondan tashqari hamma poddiapazonlarda ishlaydi. Telefon ikkita kichik gabaritli TG-7M tipidagi telefonlardan iborat va ular yumshoq materialdan tuzilgan. U o'lchagich pul tiga ulanadi va radiaktiv nurlanish mavjudligini qayd qiladi: Nurlanishning quvvuti qancha yuqori bo'lsa, ovoz chertish shuncha tezroq bo'ladi.

Q u t i-asbobni olib yurish va to'liq komplektni saqlashga mo'ljallangan.


E h t i y o t q i s m l a r g a - taglik, vintlar, qalpoqchalar, zond uchun chehollar, qizdirish chiroqlari va buragichlar kiradi.

Hujjatlar-ishlatish bo'yicha yo'l-yo'riq (instruktsiya) va texnik ko'rsatmadan iborat.

Hududdagi radiatsiya miqdorini o'lchashdagi baholashning boshlang'ich ma'lumoti hisoblanadi. Ob'ekt FM boshlig'i va uning shtabi qutqaruv va kechiktirib bo'lmaydigan avariya tiklash ishlarini, zararlanish makonida razvetka ma'lumotlari va maqsadga muvofiq qabul qilingan hal etish kerak bo'lgan ishlarni ta'minlaydi, radiaktiv zararlanish zonalarini bosib o'tgan harakat yo'llarini tanlash va harbiylashmagan tuzilmalarning dam olish rayonlarida (smena ishlaridan ozod) bo'lish ehtimolini aniqlash. Radiatsion razvetka tuhtamasdan ko'zatuvi postlarida va barcha harbiylashmagan tuzilmalar va maxsus tayyorlangan razvetka guruhlar va tarkibiy qismlarda amalga oshiriladi.

Shaxsiy dozimetrlar. DP-22V, DP-24, ID-1, ID-11 dozimetrlar komplektlari radioaktiv moddalar bilan zararlangan joylarda yoki ochiq va yopiq ionlovchi nurlanishlar manbalari bilan ishlaganda odamlar tomonidan olinadigan nurlanish dozasini nazorat qilish uchun foydalaniladi.

DP-22V komplektida cho'ntakda olib yurishga mo'ljallangan 50 ta to'g'ri ko'rsatuvchi DPK-50A dozimetrlari, DP-24 komplektida faqat 5 ta shunday dozimetrlar bo'ladi.




DP-22V va DP-24 dozimetrlari komplekti

1 -DKP-50A shaxsiy dozimetrlar; 2-zaryadlovchi qurilma. Dozimetrlar nurlanish dozasi 2 dan 50 R, doza quvvati 0,5 dan 200 R/s gacha, energiya 0,2 dan 2 mev diapazonda o'lchash imkoniyatiga ega. Ikkala komplektda ham ZD-5 zaryadlash qurilmasi va texnik ko'rsatma mavjud.

Komplekt -40° dan $Q50^{\circ}$ gacha haroratda ishlash qobiliyatiga ega. O'lchashlar hatosi $Q20^{\circ}$ haroratda $Q10\%$ dan oshmaydi. DGT-22V komplektining qutida joylashgandagi og'irligi 5,6 kg, DP-24 komplektiniki esa 3 kg, bir dozimetrlarning og'irligi 32 gr. dan ortiq emas.

DKP -50 A dozimetri konstruktiv jihatdan avtoruchka shaklida qilingan. Dozimetr "havo evivalentli" dezorli kichkina o'lchamli ionlash kamerasi, sig'imi 500pf ga teng kondensator, elektroskop va 90 marotaba kattalashtiruvchi mikroskopdan tashkil topgan. Tashqi elektrod dozimetrlarning tsilindr korpusi hisoblanadi. Ichki elektrod alyuminiy simdan tayyorlangan bo'lib, u U-shaklli bukilib tugaydi. Unga ikki joyda elektroskopning harakatlano'vchi platinali ipi mahkamlangan.

Mikroskop okulyar va ob'ektivdan iborat bo'lib, ular o'rtasida 25 bo'lakli (0 dan 50 gacha) shkala joylashtirilgan.



DKP-50A dozimetri.

1-okulyar; 2-shkala; 3-korpus; 4-harakatlanuvchi platinali ipcha; 5-ichki elektrod; 6-kondensator; 7-himoya tayanchi; 8-ko'rish o'Masi; 9-ionlash kamerasi; 10-ob'ektiv; 11-ushlagich; 12-gayka.

Ishni bajarish tartibi. Asbobni ishlashga tayyorlash. Mikroampemetrlarning strelkasi to'g'irlovchi vint yordamida "O" ga qo'yiladi. "Rejim" dastagini soat strelkasiga qarshi yo'nalishda taqalguncha buraladi. Poddiapazonlarni o'zgartiruvchi "vmkl" holatiga qo'yilgandan keyin energiya manbalari joylashtiriladi. Buning uchun DP-5A rentgenmetrda 4ta tushib ketmaydigan vint (DP-5B va DP-5V asboblarda energiya manbai bo'limidagi 1 ta vint) bo'shatilib qopqog'i olinadi va 1,6 PMTS-H-1,5 (KB-1) shemaga muvofiq Zta element qo'yiladi.

Asbob akkumlyatordan oziqtanganda kuchlanishni taqsimlagichdagi ulagichlar kerakli kuchlanishga qo'yiladi, so'ng sh uni vintlar yordamida oziqlanish bo'limiga birlashtiriladi. Undan keyin poddiapazonlarni o'zgartiruvchi "rejim" holatiga keltiriladi. "Rejim" dastagi soat strelkasi yo'nalishida ohista buralib, strelka tepa shkaladagi qora uchburchakka qo'yiladi. Strelka buralganda tepadagi qora chiziqqacha yetmasa kuchlanish ozligini ko'rsatadi, demak yangi elementlarni qo'yish kerak. Keyin asbob strontsiy-90 bo'yicha tekshiriladi: poddiapazon **hYuOO** holatiga qo'yiladi, radioaktiv manba qopqog'i o'z o'qi atrofida burab ochiladi. Zond ekrani "B" holatga buraladi va zond quti qopqog'iga tayanchlar bilan mahkamlanadi. Bunda strontsiyli manba zond teshigi qarshisida turishi lozim. Telefonlar ulanadi.

200 dan tashqari hamma poddiapazonlarda (strelka va telefon bo'yicha) asbob ishlashini tekshirish kerak. Asbob strelka poddiapazonlarni o'zgartiruvchining **hYuOO**; **hYuO** holatlarida siljimsa yoki h_1 ; $h_{0,1}$ holatlarda shkaladan chetga chiqib ketsa, **hYu** holatda **formulyarda** ko'rsatilgan raqamda turishi kerak ($2,2h_{10}=22$). «Sbros» knopkasi ishi tekshiriladi. Ishlaganda yoki radioaktivlik o'lchangandan keyin asbobni o'chirish kerak.

Gamma-nurlarini o'lchash. "200" poddiapazonda 5 dan 200 R/s gacha radiatsiya darajasi o'lchanadi. Buning uchun asbob yuqorida ko'rsatilganidek moslanadi, poddiapazonlarni o'zgartiruvchi **"200 •"** holatiga qo'yiladi, zond teshigi ekran bilan bekitiladi va zond qutiga joylashtiriladi. Radiatsiya darajasi 1 m balandlikda o'lchanadi va har 10 sekunda quyi shkala bo'yicha ko'rsatishlar yozib olinadi. Doza quvvati 5 R/s gacha bo'lganda tepadagi shkala bo'yicha **h'1000** poddiapazonda o'lchanadi. Har 10-45 sek da ko'rsatishlar olinib, bu raqamlar poddiapazonlar o'zgartiruvchisida turgan koeffitsentga ko'paytiriladi,

Ob'ektlarnin g m/s.daifodalangan radioaktiv ifloslanishini ob'ekt yuzasi yopiq holda zondga yaqin 1-1,5 sm uzoqlikda ushlanib yuqori shkala bo'yicha olingan ko'rsatishlarni poddiapazon koeffitsentiga ko'paytirilib aniqlanadi. Olingan kattaliklar (ma'lumotlar) ruhsat etilganlari bilan taqqoslanadi.**Beta-nurlanishlarni aniqlash.** Buning uchun zondagi ekran **"Y*"** holatiga keltiriladi: va zond tekshirilayotgan yuzaga 1-1,5sm masofada yaqin olib kelinadi. Poddiapazonlarni o'zgartiruvchining tutqichi **xOD**; **x1** va boshqa holatlarga o'tkaziladi. "B" holatda beta-gamma nurlanishlar umumiy yig'indisi o'lchanadi. So'ngra zond teshigi aylanadigan ekran ("G" holatda) bilan bekitiladi va huddi shunday masofada gamma-nurlanish dozasi quvvati o'lchanadi. Agar asbob teshigi ochiq holda, teshigi yopiq holdagidan yuqori sonni ko'rsatsa, demak tekshirilayotgan ob'ekt yuzasi beta-nurlanish chiqarmoqda. Agar ko'rsatish sonlari bir hil bo'lsa, faqat o'rab turgan ob'ektlardan yoki tekshirilayotgan ob'ektda gamma-kvantlar mavjudligini bildiradi.


1. Radioaktivlik nima?

2. Radioaktiv parchalanishning qanday turlari mavjud?
3. Radioaktiv nurlanishning o'lchov birliklari qanday?
4. Radioaktiv nurlanishlar qanday usullar bilan aniqlanadi?
5. Dozimetrik asboblarning qanday tuzilgan va qanday jarayonda ishlaydi?
6. Ionlash kamerasining vazifasi nimadan iborat?
7. DP-5A dozimetri nima maqsadda ishlatiladi?
8. Shaxsiy dozimetrlarga qanday markadagi dozimetrlar kiradi?
9. DP-5A asbobi bilan gamma-nurlanishlar qanday aniqlanadi?
10. DP-5A asbobi bilan beta-nurlanishlar qanday aniqlanadi?

Xozirgi vaqtda zaharli moddalarni aniqlash uchun kimyoviy razvedkaning qo'shin asbobi — VPXR, tibbiy va veterinariya xizmatlari kimyoviy razvedka asbobi — GTXR-MV, tibbiy dala kimyosi laboratoriyasi — MPXlar ishlatiladi.

Zaharli moddalarni kimyoviy razvedka dala asboblari bilan aniqlash, so'rilayotgan zaharlangan havo oqimi reaktiv orqali reaktiv rangi intensivligi to'ldiruvchidagi zaharli moddaning havodagi konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

Kimyoviy razvedkaning qo'shin asbobi (VPXR) zarin, zoman, iprit, fozgen, difozgen, sinil kislota, xloritsian, shuningdek, Vi-iks gazlarning zavodda ma'lum xududlarda, texnikada borligini aniqlashga mo'ljallangan Asbob qopqoqli korpusdan, unga o'rnatilgan qo'l nasosi, kiydirma, indikatorli trubkalari bo'lgan kog'oz kassetalar, tutunga qarshi filtrlar, himoya qalpoqchalari, elektrofonar, korpus va unga qo'yiladigan patronlardan tashkil topgan.



Kimyoviy razvedkaning qo'shin asbobi — VPXR (a) va indikatorlar kassetasi (b):

1—nasos; 2—elka qayishi; 3—nasos kiydirmasi; 4—himoya qalpoqchalari; 5—tutunga qarshi filtrlar; 6—grelkaga (qizdirgichga) patronlar; 7—elektrofona; 8—shtir; 9—belkurak; 10—grelka (qizdirgich); 11—indikatorli trubkalarning kog'oz kassetasi.

Undan tashqari, jamlamaga namuna olish uchun kurakcha, asbob ishi bo'yicha zoman tipidagi zararli moddalarni xavoda aniqlash, asbobni ishlatish buyicha ko'rsatmalar va

pasport kiradi. Asbobni olib yurish uchun yelkadan o'tkaziladigan qayish bor. Jamlama og'irligi 2,2 kg. Qo'l nasosi zararlangan havoni indikatorli trubkada joylashgan reaktiv orqali so'rish uchun xizmat qilib, bu trubka nasos bosh qismidagi teshikka o'rnatiladi. Nasos bilan 50-60 marta so'rilganda 1 daqiqada indikatorli trubka orqali 2 l.ga yaqin havo o'tadi. Nasos havoni bir yo'nalishda so'radi. Nasos ruchkasida 2 ta ampula ochgich bo'lib, ular yordamida indikatorli trubkalardagi reaktivli ampulalar sindiriladi. Indikatorli trubkalarning uchlarini sindirish va yo'nish uchun nasos bosh qismida moslama o'rnatilgan. Nasos kiydirmasi xar xil predmetlarda, sochiluvchi materiallarda (ximoya qalpoqchalaridan foydalangan xolda) va tutunli havoda (tutunga qarshi filtrlardan foydalangan xolda) zaharli moddalarni aniqlash uchun xizmat qiladi. Indikatorli trubkalar zaharli moddalarni aniqlash uchun mo'ljallangan va kavsharlangan shisha trubkalardan iborat bo'lib, ularning ichida to'ldirgich va reaktivli shisha ampulalar joylashgan. Trubkalar rangli xalqalar ko'rinishidagi belgilarga ega; bitta kizil xalqa va kizil nuqta — zarin, zoman va Vi-iks gazlarni, uchta yashil xalqa — fozgen, difozgenni, sinil kislota, xlortsinni; bitta sarik; Xalqa — ipritni aniqlash uchun mo'ljallangan. Reaktivlar ma'lum vaqt saqlangandan keyin ularni yangilari bilan almashtirish kerak. Bir xil belgili indikatorli trubkalar 10 tadan qog'oz kassetaga joylashtirilgan. Kassetalarda reaktiv tayyorlangan vaqti va nasosi bilan necha marta havo tortishligi ko'rsatilgan bo'lib, to'ldiruvchi modda rangi, havoda zaharli moddalar bor yoki yo'q bo'lganda qanday bo'lishi ko'rsatilgan. Tutunga qarshi filtrlar maxsus kartondan kilingan plastinkalar bo'lib, xavoda nordon bug'lar miqdorini, tutunda, tuproqda va sochiluvchi materiallarda zaharli moddalarni aniqlash uchun foydalaniladi. Ximoya qalpoqchalari voronkasimon kiydirmaning ichki yuzasini xar xil ob'ektlarda (texnikada, tuproqda, binoda) zaharli moddalarni aniqlashda zararlanishdan saqlaydi. Qizdirgich havo xarorati past bo'lganda indikatorli trubkalarni qizdirib, zaharli moddalarni aniqlashga mo'ljallangan. Bundan tashqari, sariq va kizil xalqali indikatorli trubkalar 10°S dan past harorat bo'lganda qizdiriladi. Undan indikatorli trubkalar ampulalaridagi reaktivni eritish uchun ham foydalaniladi.

Xavodagi zaharli moddalarni aniqlash uchun asbob qopqog'i ochilib, ilgich siljiriladi va nasos chiqarib olinadi. Bitta qizil halqali va qizil nuqtali trubka olinib, uchlari kesib tashlanadi va ochiladi. Trubkani ochishdan oldin qizdirgichda 10°S va undan past xaroratda qizdiriladi. 0,5-3 daqiqa mobaynida reaktiv eriydi. Nasosning ampula ochgichi yordamida mos keluvchi tamg'a bilan tamg'alangan indikatorli trubkalarning ikkitasini yuqori ampulasi sindiriladi, tamg'alangan tomoni bilan olinib, maxkam ushlanadi va 2-3 marta silkitiladi (5-rasm).

Undan keyin trubkalardan birini (sinalayotganini) nasosga tamg'alanmagan tomoni bilan o'rnatiladi va 5-6 marta surilib, u orqali havo olinadi. Ikkinchi trubka orqali (nazorat) havo so'rilmaydi, u asbobning maxsus teshigiga joylashtiriladi. Havo so'rilgandan keyin ampula

ochgich yordamida ikki trubkaning pastki ampulasi sindiriladi, chayqatilib, to'ldirgichlarning rang o'zgarishi kuzatiladi. Past xaroratda ikki trubkaning pastki ampulasini ochishdan oldin bir daqiqa davomida qayta qizdiriladi.

Pastki ampulalar ochilib, ular chayqatilgandan keyin to'ldirgich qizil bo'lib qoladi, undan keyin rang sariq tusga o'tadi. Nazorat trubkada sariq rang paydo bulishi vaqtida sinalayotgan naycha to'ldirgichi qizil rangi saqlanishi havoda zarin, zoman va Vi-iks gazining borligini ko'rsatadi. Sinalayotgan naycha to'ldirgichida nazorat trubkada ham sariq rang paydo bo'lishi, havoda yuqoridagi ZMlarning yo'qligidan dalolat beradi. Agar indikator naychalarining pastki ampulalari sindirilganda to'ldirgich sariq rangi darrov paydo bo'lsa (bu narsa tekshirilayotgan havoda nordon xususiyatli modda bo'lganda kuzatiladi), bunday holda zaharli moddalarni (Z.M) aniqlash tutunga qarshi filtr qo'llash bilan qaytariladi.

Asbob yordamida zarin, zoman va Vi-iks gazlarining havosiz kontsentratsiyalarini ham aniqlash mumkin. Nomlari tilga olingan ZMlarni aniqlash yuqorida ko'rsatilgan tartibda o'tkaziladi faqatgina sinalayotgan indikator naychasi orqali nasos bilan 50-60 marta havo so'rilganda va naychalarning pastki ampulalari birdaniga emas, balki 2-3 daqiqa o'tgandan so'ng sindiriladi. Asabni pallajlovchi ZMlarning miqdorini emas, balki fozgen va sinil kislotasining havoda borligi aniqlanadi. Buning uchun 3 ta yashil xalqali indikatorli trubkani olib, uning uchlari sindiriladi, nasosga trubkani qo'yib, u bilan 10-15 marta suriladi. Naycha nasosdan chiqarib olinib, kog'oz kassetada saqlanadigan 3 ta yashil xalqali trubkalardagi etalon to'ldirgichi bilan solishtiriladi. Sinil kislotasi bor bo'lsa, to'ldirgichning pastki qatlami qizg'ishsiyoh, fozgen yoki difozgen bo'lsa, to'ldirgichning ustki qatlami qoramtir-ko'k rangda bo'ladi. So'ng havoda iprit borligi aniqlanadi, buning uchun 1 ta sariq halqali indikatorli naycha uchlari sindirilib, nasosga qo'yiladi va u bilan 60 marta so'riladi. 1 daqiqadan keyin qog'oz kassetadagi 1 ta sariq halqali trubka bilan solishtiriladi. Iprit bor bo'lsa, to'ldirgich jigarrangda bo'ladi.


Zaharli moddalarni tuproq va sochiluvchi materiallarda aniqlash uchun indikatorli trubkani olib tayyorlash kerak va u nasos boshiga qo'yiladi. Undan keyin o'rnatmaga nasos moslamasi qo'yilib, himoya qalpoqchasi voronkaga kiygaziladi. Zararlanishi gumon qilingan yerdan kurakcha yordamida tuproqning yuqori qatlamidan namuna olinib, himoya qalpoqchasi chetlarigacha solinadi. Voronkaga tutunga qarshi filtr o'rnatilib, maxkamlanadi va talab etiladigan miqdorda nasos bilan ifloslangan havo so'riladi. Keyin tutunga qarshi filtr, namuna va qalpoqcha olinib, tashlab yuboriladi. Indikatorli naycha chiqarib olinib, ZMlar qog'oz kassetasidagi etalon to'ldirgich rangi bilan solishtirib aniqlanadi. Sochiluvchi materiallarda zarin, zoman, Vi-iks gazlarni aniqlash uchun 2 ta tekshirilayotgan va nazorat-indikatorli naychalar olinadi va ular havoda qanday kuzatilgan bo'lsa, bu yerda ham shunday kuzatiladi.

Joylarda, kiyimlarda va har xil predmetlarda ZMlarni aniqlashda ikkita: biri qizil halqali va biri qizil nuqtali indikatorli naychalar olinib, ularning yuqori ampulasi sindiriladi va 2-3 marta qattiq chayqatiladi. So'ng nasos teshigiga tamg'alanmagan tomoni qo'yiladi, kiydirma buraladi, voronka o'rnatmasiga himoya qalpog'i kiygaziladi, yerga o'rnatma te-kizib qo'yiladi yoki u tekshirilayotgan predmet yuzasiga shunday qo'yiladiki, voronka eng yorqin ko'ringan zararlanish belgilari bor joyni to'liq berkitishi shart va trubka orkali havo so'rilishi uchun zarur miqdorda nasos harakatlantiriladi. Nazorat trubka orqali havo so'rilmaydi. Keyin o'rnatma olinadi, himoya qalpog'i tashlanib, asbobga o'rnatma qo'yiladi, indikatorli naycha, nasos uyasidan chiqarib olinadi va naychalarning pastki ampulasi sindiriladi. Indikatorli naychadan havo so'rilgandan keyin bir daqiqa o'tgach tajriba naychasining to'ldirgich rangi etalon naycha to'ldirgich rangi bilan solishtiriladi.

Meditsina-veterenariya xizmatlari kimyoviy razvedka asbobi (PXR-MV)

Asbob (6-rasm) suvda, oziq-ovqatlarda, havoda va har xil predmetlarda zarin, zoman, Vi-iks gazlarini, iprit, xlortsian, sinil kislotasini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, bu asbob yordamida suvda sinil kislota tuzlari, alkaloidlar, og'ir metallarning tuzlari, havoda fozgen va difozgenni aniqlash mumkin.

Suvdagi ZMlarni va zaharli birikmalarni aniqlash uchun belgilangan dreksel probirkasiga ma'lum reaktivlardan foydalangan holda, reaktiv rangiga karab yoki uning rangini standart reaktiv rangi bilan solishtirish orali aniqlanadi.



ZMlarni suvda (a) va oziq-ovqatlarda (b,v) aniqlash:

1—sinalayotgan oziq-ovqatli banka; 2—dreksel sklyankasi; 3— reaktivli indikator naycha; 4— nasos.

Suvdagi zoman, zarin, Vi-iks gazlarini aniqlashda ampulalar to'plamidan foydalaniladi va ikkita namuna-tajriba, nazoratlanadi (6-rasm). Oziq-ovqat namunalaridagi ZMlar havo ekstraktsiyasi usuli bilan aniqlanadi. Namuna bankaga joylashtirilib, u buraladigan metall qopqoq. bilan zich yopiladi. Qopqoq orqali banka ichiga uning tubigacha bitta naycha tushiriladi, ikkinchisi egilgan bo'lib, tashqariga chiqadi. Ushbu chiqqan naycha indikatorli naychaga va nasosga ulanadi. Xavo namuna orqali so'riladi (6-rasm) yoki tekshirilayotgan namunali banka

bilan nasos o'rtasiga suvli dreksel sklyankasi joylashtiriladi va dreksel probirkasi suvidagi ZMlar aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. "Axoli va hududlarni tabiiy va texnologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish to'g'risida" 20.08.1999 yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. "O'zbekiston Respublikasi favqulotda vaziyatlar vazirligi tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.1996 yildagi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining "O'zbekiston Respublikasi axolini FV lardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida" 07.10.1998 yildagi 427-sonli qarori.

Tojiev M., Ne'matov N., Ilxomov M "Favqulotda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi". T.

9-mavzu: Favqulodda holatlarda iqtisodiyot tarmoqlarida qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini tashkil etish

Reja 1.FVlarda qutqaruv ishlarini tashkil etish.

2.FVlarda avariya-tiklash ishlarini o'tkazish.

Zararlangan zonalarida qutqaruv va kechiktirilmaydagan ishlarni o'z vaktida, hamqorlikda o'tkazish asosan komanda guruh boshliqlariga bog'liq. Komandirlar qanchalik ish olib boriladigan sharoitni, holatni yaxshi tushunsa, shunchalik tashkilotchilik yaxshi bo'ladi. Buning uchun razvedka ma'lumotlariga boy bo'lishi kerak.

Bo'lim komandiri yo'qligida komandirlik vazifani olgandan keyin ish tashkil qilishga o'tadi: Buning uchun ular vazifani aniqlaydi va olingan holatlarga ko'ra, vaziyatni aniqlaydilar. Barcha ma'lumotlarga asoslangan holda, buyruq chiqaradi.

Buyruqda zaharlangan joyga guruhlarini olib borish uchun quyidagilarni tushuntirishi shart:

- qaysi yul bilan borish;
- qaysi joyga va qancha vaqtda yetib borish;
 - boriladigan yo'lni holatini aniqlash;
 - QTG ni ish olib boradigan boshlash vaqti;
 - Qay tarzda yo'lga chiqish, tezlikni va texnikalar, komandalar oralig'i.

Bo'linmalar ketma-ket yo'lga chiqib, kunduzi 30-35 kmG'soat tezlik bilan, kechasi 25-30 kmG'soat tezlik bilan, yayov 3-4 kmG'soat tezlik bilan borishi kerak.

Favqulodda holatlarda qutqaruv va shoshilinch avariya-tiklash ishlarini tashkil etishni o'rganish maqsadida, talabalar quyidagi bo'linmalarga texnika va uskunalar taqsimotini bilgan holda jadvalni to'ldirlari kerak.

1-jadval

Tartib soni	Bo'linmalar	Odam soni	Uskunalar	Texnikalar
1	Razvedka bo'limiga	3	DP-5, VPXR	Avtomashina
2	O't o'chiruvchi bo'linma	5		O't o'chiruvchi mashinalar
	Shunga o'xshash			O't o'chirgichlar

Favqulodda hodisa yuz bergan zonalarida muxandislik razvedkasini o'tkazish uchun favquloddagi hodisalarni qisqa vaqtda bartaraf qilish uchun quyidagilarni aniqlash kerak:

- vayronagarchilik chegaralarini;
- o't yongan joylar va ularning chegaralarini;
- komandirlarning zaharlangan zonaga borish qobiliyatlari va yo'lining ahvoli;
- pana joylarning joylashishi va holati;
- kommunal hujalikdagi avariyaarning turlarini va joylarini;
- qutqaruv va shoshilinch-tiklov ishlarini o'tkazish ketma-ketligi;
- texnikalarni remont, zaharsizlantirish joylarini;
- zaharlangan joylarning zaharlanish miqdori va turi.

Razvedkani tezlik, hamjihatlik va hamkorlikda o'tkazib turish kerak, chunki razvedka ma'lumotlariga asosan fukaro mudofaasi kuchlari xabardor bo'ladilar. Qutqaruv va shoshilinch-tiklash ishlarini olib borganda ob-havo sharoitiga qarab navbatchilik smenalarini tashkil qilishi kerak.

Favqulodda hodisa yuz berganda aholini qutqarish uchun asosan transportlardan foydalaniladi. Aholini bo'lib joylashtirish, qolgan aholini shahardan, markazdan tashqaridagi zonalarga olib chiqib qetish va bunda shahsiy himoya vositalaridan, transportlardan foydalanish kiradi.

Shuni esda tutish kerakki, mashina va mexanizmlarni yuksak darajada ishlashlari, faqatgina ularni a'lo texnik holatda bo'lishlari, to'xtovsiz yonilg'i-moylash materiallari bilan odamlarni qaysi avtotransport va qancha odam joylanish normatividan foydalanish kerak.

Yuk tashuvchi avtomashinalarni odam tashish uchun ishlatganda uni maxsus jihozlash kerak.

Kolonnani yo'ldagi o'rtacha tezligi kunduzi 36-40 kmG'soat, kechasi 26-30kmG'soat bo'lishi kerak.

Avtotransportni bir marta berib kelishga ketadigan vaqt quyidagicha aniqlanadi:

$$T = t_m + t_o + \frac{2 * 60 * L}{V_{ypm}}$$

Bu yerda:

- t_t - Avtotransportni odam bilan to'lg'azish vaqti, min.
- t_b - Avtoransportdan odamni bo'shatish vaqti, min.
- L - Odamni olib chiqib ketiladigan o'rtacha masofa, km.
- $V_{o'rt}$ - Avtoransportni o'rtacha tezligi.

Favqulodda holatlarda qutqaruv va shoshilinch avariya-tiklash ishlarini tashkil etishni o'rgatish maqsadida, xar bir talaba uchun misollar berilib, ular uchun favqulodda holat yue bergan joydan transport bilan aholini necha soatda olib chiqib ketishni aniqlashni o'rgatiladi. Quyidagi misolni ko'rib chiqamiz.

Misol: Toshkent viloyati "Korasuv" jamoa xo'jaligida 2530 ta aholisi bor. Favquloddagi hodisa yuz berganda, shu aholini "Keles" jamoa ho'jaligiga olib chiqib ketish kerak. "Korasuv" jamoa ho'jaligida odam tashiydigan 50 ta avtomashina bor (avtobus 8 ta, RAF-2 ta, LAZ - 5ta). Qolganlari yuk tashuvchi mashina. Ikki xo'jalik oralig'i 70 km. "Korasuv" jamoa xo'jaligi o'z transporti bilan aholisini necha soatda olib chiqib ketadi? Grafigini tuzing.

1. Bir yula xo'jalikdagi avtoransport bilan qancha odam olib chiqib ketiladi:

Avtobus PAZ 8*30q 240 ta

PAZ 5*40q 200 ta

RAF 2*10q20 ta

Gruz, avtobus ZIL 35*25q875 ta

Bir yo'la $N_{1q}PQLQRQZq240Q200Q20Q875q1335$ ta

Ikkinchi yo'li $N_2 qNum-N1q2530-1335q1195$ ta

Odamlarni avtomashinalarga joylashi -1 soat.

Odamlarni mashinalarga chiqishi - 45 min.

Haydovchilarni dam olishi - 30 min.

Hammasi bo'lib - 11 soat kerak.

Xulosa: Agar hamma transport normal ishlasa, "Korasuv" jamoa xo'jaligi favquloddagi voqea yuz berganda o'z avtotransporti bilan aholisini 11soatda olib chiqib ketishga erishadi.

Qolgan variantlar uchun shaharlararo masofa va mashina tezliklari quyidagi jadvalda berilgan.

3-jadval

Shaharlararo masofa va mashinaning tezligi

Variant	Manzilgoh	Masofa, km	Mashina tezligi, kmG'soat	Aholi, kishi
1	Toshkent-Sirdaryo	80	30	1800
2	Toshkent-Chinoz	65	25	2000
3	Toshkent-Yangiyo'l	35	25	2100
4	Toshkent-To'ytepa	30	30	2200
5	Toshkent-Chirchik	25	30	1500
6	Toshkent-Bekobod	130	30	1400
7	Toshkent-Bekobod	130	25	1600
8	Toshkent-Olmalik	90	30	1700
9	Toshkent-Olmalik	90	25	1800
10	Toshkent-Angren	110	35	1900
11	Toshkent-Angren	110	25	1500
12	Toshkent-Abay	70	30	1400
13	Toshkent-Abay	70	25	1300
14	Toshkent-Chimyon	140	30	1200
15	Toshkent-Chimyon	140	35	1000
16	Toshkent-Buka	75	30	1100
17	Toshkent-Samarkand	300	35	1200
18	Toshkent-Samarqand	300	30	1150
19	Toshkent-Navoiy	550	40	1050
20	Toshkent-Parkent	43,5	45	1000
21	Toshkent-Shovot	1120	140	900

Qutqaruv ishlari deb nimaga aytiladi?

1. Shoshilinch avariya-tiklash ishlarideb nimaga aytiladi?.
2. Nima uchun xujalikda yigma komanda tuziladi?.
3. Texnika va uskunalarni qanday taqsimot qilinadi?.
4. Aholini qanday himoya qilinadi?.
5. Qanday transportlarda aholini tashish mumkin?.
6. Aholini tashiganda nimalarga e'tibor qilish kerak?.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Akimov N.I. va Il'in V.G. "Qishloq xo'jalik ob'ektlarida grajdan mudofasi". Toshkent-"Mehnat"-1988y.
2. Atamanyuk V.G. i dr. "Grajanskaya oborona". M. Vo'sshaya shkola. 1987g.
3. Ortiqov X.O. i Madreimov A. "Metodicheskaya razrabotka po likvidatsii posledstviy stixiyno'x bedstviy, krupno'x avariy i katastrof, bor ba s pojarami". Uzgirozem. 1988g.
4. Miraxmatov M.M. "Osnovo' organizatsii i provedeniya spasatel no'x i neotlojno'x avariyno-vostanovitel no'x rabot". Tip. TIIMSX. 1990g

Darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati ASOSIY ADABIYOTLAR

1. "Aholini va huddudlarni tabiiy hamda техноген хусусиятли фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиришлар киритиш ҳақида. 2010 йил 17 сентябр.
2. "Фуқаро муҳофазаси тўғрисида"ги 2000 йил 26 майдаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.
3. "Қишлоқ хўжалик ўсимликларини зараркурандалар, касалликлар ва бегона ўтлардан ҳимоя қилиш тўғрисида"ги 2000 йил 31 августдаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.
4. "Радиациявий хавфсизлик тўғрисида"ги 2000 йил 31 августдаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.
5. "Терроризмга қарши кураш тўғрисида"ги 2000 йил 15 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.
6. "Хавфли ишлаб чиқариш объектларининг саноат хавфсизлиги тўғрисида"ги 2006 йил 28 сентябрдаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.
7. I. Nigmatov, Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi : Ma`ruzalar to`plami Toshkent : TDTU, 2015, 260 b.
8. M. Tojiyev, I. Nigmatov Hayot faoliyati xavfsizligi: o'quv qo'llanma; O'zbekiston Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, -Toshkent: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012 yil, 272 bet
9. О. Кудратов, Т. Ганиев «Фавқулдда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси» Т: 2005 йил.
10. Раҳмонов ва бошқалар. "Фавқулдда вазиятларда шикастланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш. Т. "Фан" 2004 йил

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Friend, Mark A. Fundamentals of occupational safety and health / Mark A. Friend and James P. Kohn.—4th ed. 2007. 596
2. Сычев Ю.Н. Безопасность жизнедеятельности в чрезвычайных ситуациях: учебно-практическое пособие / Московский государственный университет экономики, статистики и информатики. — М., 2005. — 226
3. Christer Pursiainen "Early Warning and Civil Protection When does it work and why does it fail?", Stockholm, Sweden 2008.

Elektron resurslar

1. www.ziyo.edu.uz Vazirlik sayti
2. www.mintrud.uz Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti
3. www.standart.uz Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi sayti